



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof.(Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xalil Ismayil o'g'lu Ismayilov, t. f.d, prof

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru,

(AMEA) muxbir uzvu

(Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof.(Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n(Rossiya Federatsiyasi)

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof.

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJPOV, fal.f.f.d., (PhD)

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof(Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Qosimboy QABULOV, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzirimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2024-yil 28-dekabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2024-yil, 12-son

(63).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining

kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №27.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb

izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning

to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan

qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga

qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va

mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam

beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"

jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola

berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.



Crossref

Crossref DOI

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va

10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy

maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

BIZNI IJTIMOY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

Founders: Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAEVA

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

SECTION EDITOR:

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof.(Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n. (India)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zabikhulla SAIPOV, s.sc.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, ist.sc.d, dots.

Gavkhar DURDIYEVA, arch.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy, (Ozarbayjon)

Azerbaijan National Academy of Sciences

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Rossiya)

Daniyor YULDASHEV, Phil.sc.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, can.of phil.sc, dots (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAYEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, phil.sc..d., (PhD)

Gayrat MAMBETKADIROV, s.sc.d.

Rana Hamid qizi Qadirova, Psychol.sc.d., prof(Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

Qosimboy KABULOV, Psychol.scd., (DSc)

COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.



"Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale. Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref DOI

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 1/8. Publisher's scoreboard 6.5. The index is 960. ISSN 2181-8258.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2024, No.12 (63).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #27. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



10.00.00 - “FILOLOGIYA”

Muradova Sevara Zoir qizi. Ingliz tili toponimikasiidagi gidronimlarning lingvistik va madaniy ahamiyati.....	25
Karimova Ozodaxon Avazxon qizi. Ikkinchi tilni qiyosiy o'rganish: uning ta'siri, oltinchi sinf o'quvchilariga ta'limiy va psixologik ta'siri	28
Sharipova Nigora Nuriddinova . “Xamsa” ilk dostonlari vazni xususida.....	31
Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi. Ingliz tilida rieltorlik terminlarining yasaliishi.....	38
Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna. O'zbek va ingliz tillaridagi aforizmlarda “yolg'izlik” va “hijron” konseptlari.....	41
Sayipova Dilafruz Rahimovna. “Boburnoma” – dunyoni rom etgan asar.....	44
Uralova Dilnoza Murodilla qizi. “Yolg'izlik” modern qissasida ruhiyat va voqea dialektikasi.....	47
Diyarov Akmal To'liqin o'g'li. Ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlarining leksik-semantik tadqiqi.....	50
Alimbetova Mexriban Muratbayevna. Filolog talabalarining lug'atini autentik matnlar yordamida rivojlantirish.....	65
Bo'tayeva Nigora Abdumannonovna. Komil Xorazmiy ijodida she'riyat va musiqaaning uyg'unlashuvi.....	69
Tursunova Sojidxon. Badiiy matnda ironiya va ironik mazmun ifodalash vositalari.....	81
Матимов Кошкарбай Генжебаевич. Хэзирги қарақалпақ әдебиятында эссе жанры.....	90
Mominova Yulduz Aminboyevna, Egamberdiyeva Umida Xudoybergenovna. O'zbek tilida so'z yasash usullarini yangi innovatsion metodlar asosida o'rgatish.....	94
Djabarov Dilrux Zufarovich. Ingliz tilidagi pedagogik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	98
Beginqulova Sevara Faxriddinova. Jahon va o'zbek tilshunosligida valentlik masalasi.....	101
Bekniyazov Berikbay Kozdibayevich. Qoraqalpog'iston qozoqlari tilidagi somatik nomlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	112
Mamatusunova Umida Shuxratovna. Dunyoni konseptuallashtirishda “konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish va ideallashtirish” tushunchalari.....	115
Umarova Nigora Zaynitdinovna. O'zbek tili mashg'ulotlaridan savol o'quv topshirig'idan foydalanish.....	147
Ernazarova Manzura Saparboyevna. Ona tili ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyalar ustida ishlash.....	150
Tog'aymurodov Dilshod Dilmurodovich. “Fahrengeyt bo'yicha 451 daraja” asaridagi ramzlar va metaforalar bo'yicha lingvokulturologik tahlil.....	162
Ахмедова Саодат Шўҳрат кизи. Многогранность любви: как концепты формируют наше восприятие.....	173
Abdullayeva Guliston Sultanovna. Abdurazzoq Faqiriy – milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti vakili.....	178
Xoliqova Zahro Arol qizi. Kognitiv yondashuv va uning mohiyati.....	181
Axmedova Nargiza Shixnazarovna. Assotsiativ maydonda antonim va sinonimlarning o'rni.....	207
Shukurova Zulxumor Baxtiyarovna. O'zbekcha-ruscha matnlarda metaforalarning kognitiv xususiyatlari.....	218
Axrорова Зийодaxon Arabjon qizi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida vaqt ma'noli leksemalar va ularning tahlili.....	221
Ravshanova Ra'no Xandamovna. Nolisoiy muloqot orqali o'quvchilarni aqliy faoliyatini rivojlantirish.....	231
Xodjayeva Dilafruz Izatilloevna. Lingvodidaktik terminologiyada sinonimiya hodisasi.....	237
Xalilova Zilola Farmonovna. Nemis tilini o'qitishda frazeologik birliklarning qiziqarli tahlillari.....	240
Raimnazarova Nasiba. Izohli lug'atlarda dialektizmlarning klassifikatsiyasini takomillashtirish masalasi.....	244
To'raqulova Dilrabo Chori qizi. Muqobilsiz leksika: iboralar tarjimasining ayrim muammolari (A.Qahhor hikoyalarining koreys tiliga tarjimasi misolida).....	251
Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna. XVIII asr xorij adabiyotining xususiyatlari: rus adabiyoti misolida.....	273
Iminaxonova Iroda Xuseynovna. Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rganish motivlari.....	289
Zaynutdinova Gulnoza Anvarjon qizi. Shuhrat orif she'riyati fonopoetikasi.....	296
Egamnazarov Jahongir Avaz o'g'li. “Boburnoma”dagi harbiy terminlar tadqiqotchilar nigohida.....	300
Paxratdinov Ajiniyaz Quralbaevich. Qaraqalpaqlardagi baja – jasalma tuwısqanlıq institut sipatında.....	315
Koblanova Gulbanu Bakbergen qizi. Qaraqalpaq leksikografiyasini evolyuciyasi: eki tilli so'zliklerden zamanagoy leksikografiyalıq qatnaslarğa shekem.....	319
Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna. Tez aytishlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	323
Yusupov San'at Shuxratovich. O'zbek nekrotoponimlari nomlanishining milliy-madaniy asoslari.....	329
Buriyeva Firuza. Ijtimoiy lirikada poetik kashfiyotlar (Faxriyor ijodi misolida).....	333
Musayeva Shaxlo Kudratovna. Qissalarda davr voqeligi tasviri (“Shum bola” va “Shum bolaning nabiralari” qissalari asosida).....	360
Саидова Фарида Аллаёр қизи. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да феъл түркүмига оид синоним сўзларни изоҳлашга градуонимик ёндашув.....	370
To'raqulova Dilrabo Chori qizi. Muqobilsiz leksika: iboralar tarjimasining ayrim muammolari (A.Qahhor hikoyalarining koreys tiliga tarjimasi misolida).....	374
Umurqulov Zafar Bekpo'latovich. O'xshatishda his-tuyg'ular ifodalanishi va uning inson ruhiyatiga ta'siri.....	390
Gulova Anorgul Axtamovna. Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida inson muammosi.....	394
Sayidova Shahrizoda Nasrulloevna. Muhammad Alining “Ulug' Saltanat” roman epopeyasida Amir Temur timsoliga nisbatan qarashlar tahlili.....	397
Seytbekov Adilbay Batirbekovich. K.Raxmanov shigarmalarini janrlıq o'zgesheligi.....	402
Usonova Mohinur Baxtiyorovna. Ingliz va o'zbek tillarida toponimik birliklar lingvomadaniy xususiyatlarining qiyosiy tahlili.....	410
Baxtiyorova Maftuna Baxtiyorovna. Atoqli otlarni tasniflash muammosi.....	413
Kucharova Feruza Alisher qizi. Ingliz tili va o'zbek tilidagi grammatik lakunalarining qiyosiy tahlili.....	416
Ro'ziyeva Rayhon Abdusalilovna. O'zbek va ingliz maqollarida ayol rolining ifodalanishi.....	419
Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna. “Fahm- farosat, aql” konsepti bilan bog'liq leksemalarning lingvomadaniy tahlili.....	423
Nematullayeva Gulandom Abdusamad qizi. Muqimiy va Berdaq she'riyatida harakat ma'noli leksemalarning pragmatik tahlili.....	427

LINGVODIDAKTIK TERMINOLOGIYADA SINONIMIYA HODISASI

Xodjayeva Dilafrō'z Izatilloevna, (PhD)

Buxoro davlat universiteti dotsenti

SYNONYMY IN LINGUODIDACTIC TERMINOLOGY

Dilafrō'z Izatilloevna Khodjayeva, (PhD)

Associate Professor, Bukhara State University

СИНОНИМИЯ В ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Дилафруз Изатиллоевна Ходжаева, (PhD)

Доцент Бухарского государственного университета



d.i.xodjaeva@buxdu.uz

<https://orcid.org/0000-0003-0099-6138>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda, xususan, lingvodidaktik terminologiyada sinonimiya hodisasi tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: terminologiya, sinonimik qator, lingvodidaktika terminologiya, tasnif, taʼrif, leksik birlik, oʻzlashma qatlam

Annotation: This article analyzes the phenomenon of synonymy in linguistics, particularly in linguodidactic terminology.

Key words: terminology, synonymic series, linguodidactic terminology, classification, definition, lexical unit, borrowed layer.

Аннотация: В данной статье анализируется явление синонимии в лингвистике, в частности, в лингводидактической терминологии.

Ключевые слова: терминология, синонимический ряд, лингводидактическая терминология, классификация, определение, лексическая единица, заимствованный слой.

KIRISH

Lingvodidaktik terminlarning oʻzaro munosabatida sinonimiya hodisasi muhim hisoblanadi. Hozirgi ingliz tilida ham, oʻzbek tilida ham mazkur terminologik tizimda koʻplab tushunchalar ikki va undan ortiq terminlar bilan ifodalab kelinmoqda-ki, ularni leksik-semantik jihatdan oʻrganish zarurati mavjud. Ayonki, terminologiya tizimi har bir tilning leksik qatlami singari ochiq tizim hisoblanib, unda sinonimik munosabatlar ham voqelanadi. Bu lingvodidaktik terminologiya tizimiga ham taalluqlidir.

Sinonimlar boshqa tillardagi kabi ingliz va oʻzbek terminologiyasi tizimida ham eng faol qoʻllanuvchi leksik birliklar sanalishini alohida taʼkidlab oʻtish mumkin. Mazkur ilmiy fikr shu masala tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda tegishli misollar bilan dalillangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon tilshunosligida sinonimiya masalalarida qator tadqiqotlar olib borilgan. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: G.B. Antrushina, D. Dobrovolskiy, L. Poppel, O.V. Afanaseva, N.N. Morozova, V.G. Vilyuman, B.A. Ilish, V.N. Yarseva kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Oʻzbek tilshunosligida sinonimiya masalasining oʻziga xos tadqiqot tarixi mavjud boʻlib, A. Hojiyev, A. Doniyorov, B. Toʻychiboyev, R. Yunusov kabi olimlarning ishlari alohida eʼtiborga sazovor.

Dunyo tilshunosligida terminologiya tizimidagi sinonimiya hodisasiga bagʻishlangan qator tadqiqotlar mavjud boʻlsa ham, biroq olimlar terminlar sinonimiyasi boʻyicha aniq toʻxtamli fikrga kelganlari yoʻq. Baʼzi tilshunoslar

terminologiyadagi sinonimiya hodisasini salbiy baholaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, muayyan tushuncha, predmet kabilar terminologiyada bir necha nomlar yoki boshqa ma'nolarga ham ega bo'lsa, terminlardan foydalanuvchilarga qator muammolarni keltirib chiqaradi. Sinonim terminlarning biridan foydalanib kelayotgan iste'molchi uning boshqa biri qo'llanilganida matnni tushunmasligi mumkin. Yoki bir nechta ma'no anglatuvchi termin matnda qo'llanilganda undan foydalanuvchida mazkur terminning qaysi mazmunda kelganligi haqida chalkashliklar tug'ilishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shunga ko'ra terminologiyada sinonimiya hodisasiining mavjud bo'lishini ayrim mutaxassislar ma'qullamaydi. Bunday bo'lishiga qaramasdan, tilning terminologik tizimlarida muayyan tushunchani ifodalashda ba'zan ikki yoki undan ortiq sinonim (dublet)lardan foydalanish mavjud. Bunga misol tarzida aytish mumkinki, o'zbek terminologiyasi masalalariga bag'ishlangan ayrim ishlarda *termin* birligi bilan birga *atama*, *istiloh* kabi terminlardan ham sinonimik uya tarzida foydalanilib kelinmoqda.

Keyingi davrlarda o'zbek tilida ba'zi subyektiv qarashlar natijasida termin o'rnida uning o'zbekcha *atama* va arabcha o'zlashma *istiloh* terminlarini qo'llash qisman faollashdi. Terminlar sinonimiyasi haqiqatan ham informatsiya almashinuv jarayonini qiyinlashtiradi, chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, terminologiya nazariyasida "bitta tushunchaga - bitta til birligi" printsiptiga amal qilish lozim, degan fikrlar ham uchrab turadi.

Tilshunoslikda sinonimlarga berilgan ta'riflarning dastlabkilarida quyidagilar ifodalangan: leksemalar ma'no jihatidan aynan bir xil, o'xshash bo'ladi; ularning ma'nolari umumiy xususiyat kasb etadi. Sinonimiya hodisasiga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlarda leksemalar ma'no jihatidan aynan bir xil ta'rifidan voz kechildi, unda ma'noviy farqlar, uslubiy xoslanish belgisi, konnotatsiyaning ifodalanishi kabi jihatlar mavjudligi aytiladi. Tilshunos A.Hojiyev ¹ bu

xusudsa quyidagilarni yozadi: "Talaffuzi va yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi esa bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishiga ko'ra o'zaro farqlanadigan so'zlar sinonimlar deyiladi".

Olimning mazkur ta'rifida sinonimlarning quyidagi jihatlari ko'rsatib o'tilgan: 1) talaffuzi va yozilishi har xil; 2) birlashtiruvchi ma'nosi bir xil; 3) qo'shimcha ma'no nozikligiga ega; 4) emotsional bo'yog'i va qo'llanishiga ko'ra farqlanuvchi. Ingliz olimi J.Layons ² lug'aviy birliklarning to'liq (mutlaq) sinonimlar bo'lishi uchun ular quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini aytib o'tadi:

- 1) leksik birliklar barcha ma'nolarida mos kelishi kerak;
- 2) leksik birliklar har qanday matn (kontekst)da ham sinonimik munosabatni saqlab qolishi shart;
- 3) leksik birliklar har qanday ma'no o'zgarishlarida ham o'zaro ma'no muqobilligiga ega bo'lishi lozim.

To'liq sinonimlar o'zining lug'aviy ma'nosi bilan har qanday holatda ham saqlanib qolishi bilan xarakterlanadi. Diskursiv holatlarda esa to'liq sinonimlar ko'p qo'llanilmaydi. Shunga ko'ra o'quv adabiyoti va ilmiy tadqiqotlarda erkin sinonimlar kontekst sharoitida yuzaga keladigan sinonimlardan farqlanadi. Tilshunos Q.Sapayev ³ o'zbek tilining terminologiyasida sinonimiya hodisasi xos ekanini asoslashga harakat qiladi va terminologik tizimning shakllanishi borasida ayrim o'z qarashlarini aytib o'tadi. Uning fikricha, mazkur tizimning yuzaga kelishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- muayyan tilning o'ziga xos ichki imkoniyatlari asosida terminologik tizim shakllanadi;
- o'zga tillardan so'z-terminni o'zlashtirish asosida terminologik tizim hosil bo'ladi;
- dialektal so'zlarning terminologik tizimga kirib kelishi natijasida terminologik tizim yuzaga keladi

Muayyan tilning lug'at boyligi sinonimlarning ko'pligi bilan belgilanadi. Sinonimlar ko'lamiga ta'sir etuvchi faktorlar quyidagilar hisoblanadi:

¹ A. Hojiyev. **O'zbek tilining leksikologiyasi va frazeologiyasi**. - Toshkent: Fan nashriyoti, 1985. - 144-145-betlar.

² J.Lyons. **Linguistic Semantics: An Introduction**. - Cambridge: Cambridge University Press, 1995. - 60-62-betlar.

³ Q. Sapayev. **O'zbek tilining terminologik tizimlari**. - Toshkent: Fan nashriyoti, 1985. - 45-47-betlar.

1) muayyan tilning o'z ichki manbalari va imkoniyatlari asosida sinonimlar ko'lamini kengayadi;

2) muayyan tildan tashqarida mavjud bo'lgan faktorlar – boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksik birliklar sabab sinonimlar miqdorida o'zgarishlar yuz beradi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, muayyan tilda sinonimiya tizimining shakllanishi va taraqqiyotiga o'sha tilning o'z ichki manbalari va imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan sinonimlar hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksik birliklar asos bo'ladi. Bunda, ayniqsa, o'zga tillardan o'zlashtirilgan terminlar muhim o'rin tutadi va ularning miqdori nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. O'zbek terminologiyasida shu holat asosiy o'rin tutadi.

Lingvodidaktik terminlarning o'zgarishi hamda unda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqdir. Tilshunos N.M.Rayevskaya⁴ sinonimlarni turlari bo'yicha quyidagicha tasnif etadi: a)ideografik sinonimlar; b)stilistik sinonimlar. Lingvodidaktik terminlar sinonimiyasidagi birliklar ma'no qirrasini va nozikligiga ko'ra farqqa ega. Olimning fikricha, ideografik sinonimlar ma'noning turli xil belgilari yoki ma'lum sifatning turli darajalarini bildiradi. Ular bir yoki bir nechta denotativ ma'no ifodalashda deyarli ekvivalent xususiyatga ega. Stilistik sinonimlar esa baholovchi, emotsional-ekspressiv ma'nolar bilan o'zaro farqlanadi.

Ingliz va o'zbek tillari terminologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarida mavjud bo'lgan termin-sinonimlarning salmoqli ulushini ideografik, mutlaq sinonimlar tashkil qiladi. Bunga misol sifatida ma'ruza-leksiya, pedagog-o'qituvchi-muallim, tarbiyachi-murabbiy, usul-metod kabilarni aytib o'tish mumkin. Stilistik termin-sinonimlar lingvodidaktik terminlar doirasida deyarli kuzatilmaydi. Ilmiy-texnikaviy terminlar tarkibida stilistik terminlar uchramasligi tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ayonki, stilistik termin-sinonimlar, asosan, badiiy asarlarda qo'llaniladi.

Ingliz va o'zbek lingvodidaktika terminologiyasida sinonimiya hodisasi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin.

Ularni shakliy xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlar bo'yicha tasniflab o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1) bir komponentli lingvodidaktik terminlarning sinonimiyasi: o'zbek tilida: o'qituvchi – muallim - ustoz – domla, metod – usul, baho - ball, lug'at - so'zlik anketa – so'rovnomma va h.k.; ingliz tilida: assessment-evaluation, lesson-class, method-approach va h.k.z.

2) ikki komponentli lingvodidaktik terminlarning sinonimiyasi: o'zbek tilida: bolalar uyi - mehribonlik uyi, global ta'lim - umumiy ta'lim va boshq.; ingliz tilida: language proficiency – language awareness, language learning - language education, lesson planning - teaching preparation va h.k.z.

3) turli komponentli lingvodidaktik terminlarning sinonimiyasi: o'zbek tilida: dekan – fakultet rahbari, kurs - o'quv bosqichi, orfografiya – imlo qoidalari va h.k.; ingliz tilida: curriculum – educational framework, syllabus-course outline va b.

XULOSA. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu sinonimlar orasida bir komponentli lingvodidaktik terminlarning sinonimiyasi ko'p miqdorda uchraydi. Nazarda tutilgan terminlar leksik-semantik xususiyatiga ko'ra o'rganilganda ularning sinonimiyasiga ham alohida e'tibor qaratish kerakligi aytiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abjalova M. A. O'zbek tilidagi sinonimlar tasnifi // Conference: Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari // Respublika ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Volume 1 | Issue 2, Toshkent, 2023. – B.352-362.

2. Hojiyev A. **O'zbek tilining leksikologiyasi va frazeologiyasi.** - Toshkent: Fan nashriyoti, 1985. - 144–145-betlar.

3. Lyons J. **Linguistic Semantics: An Introduction.** - Cambridge: Cambridge University Press, 1995. - 60–62-betlar.

4. Раевская Н. М. Лексикология английского языка. - Киев: Виша школа, 1979. - 303 с.

5. Sapayev Q. **O'zbek tilining terminologik tizimlari.** - Toshkent: Fan nashriyoti, 1985. - 45–47-betlar.

⁴ Раевская Н. М. Лексикология английского языка. - Киев: Виша школа, 1979. - 303 с.